CHORTOQ WELLNESS CITY

Qurilish vazirligi huzuridagi
“Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini
ishlab chiqish Respublika markazi”

TURIZM QO'MITASI

ARCHITECTURE &
ENGINEERING GROUP
Проектирование и Дизайн

NAMANGAN VILOYATI CHORTOQ TUMANI “QORABOG‘” MFY HUDUDIDA LOYIHALANAYOTGAN TURISTIK MASTER-REJA



*Prezident joriy yil yanvarida tumanlarning **master rejalari yo‘qligini tanqid qilib, “bu — korrupsiyaga asos**”ligini aytgandi. U bosh vazir o‘rinbosariga yil oxirigacha 70 ta, 2025-yilda esa O‘zbekistonning barcha tumanlari bo‘yicha master rejalar ishlab chiqish topshirig‘ini bergan.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 8 iyul kungi “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-245-son qarorida hududlarni iqtisodiy rivojlantirish va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan, tumanlar va shaharlarning drayver yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun master-rejalarni ishlab chiqish amaliyotini keng joriy qilish ko‘zda tutilgan.

MUNDARIJA

1-vazifa: Master-reja hududining joriy iqtisodiy-ijtimoiy holati bo‘yicha tahlil

1.1. Yerdan foydalanish holati va uning ixtisoslashuvi tahlili....8

1.2. Hududning rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar, aholi soni va o‘rtacha oylik daromadi, uy - joy bilan ta’minlanganlik darajasi tahlili....8

1.3. Yashil maydon bilan qamrab olinganligi, jamoat joylari, transport, muhandislik kommunikatsiyasi infratuzilmalari, tabiiy gaz va energota’minot holati tahlili....9-12

1.4 Tanlangan hudud bilan bog‘liq holda iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha holat, shu jumladan xizmatlar sohasi tahlili....13-14

1.5. Manfaatdor idora va tashkilotlar, jumladan mahalliy hokimiyat vakillari, Loyiha hududi tumandagi biznes egalari, mahalla faollari bilan suhbatlashildi va tanlangan hudud doirasida yoki tuman miqiyosida - aholi o‘rtasida telegram platformasi orqali so‘rovnoma natijasi....15

1.6. Viloyatning turistik potensiali....16-17

1.7. Tumanning turizm jozibadorligi....18

1.8. SWOT tahlillar....19-20

2-vazifa: Master-reja hududining iqtisodiy-ijtimoiy holati

2.1. Hududning geografik joylashuvi va iqtisodiy "drayverlari"....22-24

2.2. Loyiha hududi joylashgan tuman, viloyatning joriy iqtisodiy profili (salohiyati)....27

2.3. Malakasi darajasini ko‘rsatgan holda ishchi kuchi (mahalliy va tuman) tahlili....28

2.4. Loyiha hududining tumandagi joylashuvidan kelib chiqadigan potensial va uning rivojlanishi kengroq shahar kontekstiga bog‘liqligi....29

2.5. O‘zbekiston sharoitida ham amalga oshirish mumkin bo‘lgan xalqaro tajribalar....30-32

2.6. Hududning geografik joylashuvi va iqlimiy ko‘rsatkichlari....34-35

3-vazifa: Hududni rivojlantirish maqsadlari

3.1. Manfaatdor tomonlar bilan kelishgan holda hududni kelgusida rivojlantirishning konseptual yo‘nalishlari va maqsadli ko‘rsatkichlari....36

3.2. Hududning funksional zonalashtirish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini keng qo‘llagan holda hududni iqtisodiy - ijtimoiy jihatdan rivojlantirishda o‘rta muddatda amalga oshiriladigan ishlar, investitsiyalar, hududning infratuzilmalarini yanada yaxshilash, yashil maydonlarni ko‘paytirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish choralari....37

4-vazifa: Taklif etilayotgan investitsiya va infratuzilma loyihalari

4.1. Chiqindilarni yig‘ish, atrof - muhitni muhofaza qilish bo‘yicha zarur choralar....38

4.2. Davlat va xususiy investitsiyalarining ro‘yxati va ularning qiymati....39-40

4.3. Ish o‘rinlarini yaratish va imkon qadar, iqtisodiy ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha kutilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy foyda....39(Jadvalda)

4.4. Asosiy investitsiya loyihalari tavsifi....41-45

5-vazifa: Yerdan foydalanish va master reja loyihasi

5.1. Investitsiya loyihalarning joylashuvini ko‘rsatgan holda yerdan foydalanish rejasi, arxitektura ko‘rsatmalari va dizayni....47-47a

5.1.1 Loyihalanayotgan hududning aholi punkti miqyosida joylashuvi tarhi....48


1.Tayanch rejasi.

5.2. Hududdan joriy foydalanish holati, shu jumladan qurilishlardan holi bo‘lgan yerdan joriy foydalanish holati....49

MUNDARIJA

5.3. Asosiy reja 50
5.3.1. Konsepsiya hududlari 51
5.3.2 Qurilish bosqichlari hamda boshlash va yakunlash muddatlari 52-54
5.4 Qizil chiziqlarning rejaviy chizmasi 55
5.5. Yerdan foydalanish rejasi 55
5.6. Jamoat va ijtimoiy soha obyektlarini joylashtirish rejasi
5.6.1 Obyektlarning joylashuv tarhi 56-59
5.6.2 Maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari 60-61
5.7. Ochiq maydonlar va landshaft hududlar rejasi.
5.7.1 Ochiq maydonlar tarhi 62-64
5.8. Shahar dizayni va arxitektura elementlari rejasi.
5.8.1 Balandliklar tarhi – joylashtirilishi rejalashtirilgan bino va inshootlarning balandligi 67
5.8.2 Me'moriy ko'rinish chizmalari 68
5.8.3 Ko'cha muhiti dizayni, ko'chalar bo'ylab qirqimlar 69-70
5.8.4 Qush parvozi ko'rinishi 71
5.8.5 Hududning individual logotipi 72
5.8.6 Hududning Dizayn kodi 73-73b
5.8.7 Arxitektura elementlarining xilma-xilligi 74-76
5.8.8 Dendroplan asosida o'simlik va daraxtlarning tavsiyaviy shakli 77-80
5.8.9 Me'moriy ko'rinish chizmalari 81
5.9. Harakatlanish va harakat qulayligi rejasi.
5.9.1 transport harakatining yo'nalishlari, shu jumladan hududga kirish–chiqish joylari, hududni kesib o'tuvchi tranzit yo'nalishlar, transport harakati cheklovlari va samaradorligi 82
5.9.2 Jamoat transporti bekatlari, ularga yetib borish qulayligi va qamrab olish hududlari 82
5.9.3 Elektromobillar uchun quvvatlash stansiyalari 83
5.9.4 Imkoniyati cheklangan aholi, piyodalar, velosiped va yugurish yo'laklari, ko'cha va yo'llardagi o'tish joylari 84
5.10 Muhandislik jihozlash rejasi.
5.10.1 Loyihalanayotgan hududdan tashqaridagi muhandislik tarmoqlari va inshootlar hamda ularning ulanish joylari 85
5.11. Hududni muhandislik jihatdan tayyorlash va vertikal rejalashtirish rejasi (tarhi) 86-89
5.12. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi 90
5.13. 3 o'lchamli hajmiy-fazoviy ko'rinishi 91
6-vazifa: Master reja hududining lot passportlari
6.1 Davlat va xususiy sektor tomonidan hamda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining pasportlarini shakllantirildi va ularni realizatsiya qilindi 92-103

Master-reja loyihasining mazmun va maqsadlari



O'zbekiston Respublikasida master-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali hududlarning drayver yo'nalishlarini harakatga keltirishda, bo'sh yer uchastkalaridan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda.

CHORTOQ
WELNESS CITY



I Bob. Master-reja hududining joriy iqtisodiy-ijtimoiy holati bo‘yicha tahlil.

Hududning rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar

Namangan viloyati umumiy yer maydoni va aholi soni



7 900 km²

3 131 700 kishi

Viloyat hududining asosiy qismi Sirdaryoning o’ng sohilida, keng Farg’ona vodiysida joylashgan. Yer yuzasi, asosan, tekislik bo’lib, shimoliyda qator tepaliklar va Chatqol hamda Qurama toglari bilan o’ralgan.

Namangan viloyatida Turar joy narxi 1m²

min 4 52 000 so’m / 1 m²

max 6 460 000 so’m / 1 m²

Namangan viloyatida bo‘sh Yer narxi (sotix)

min 1 300 AQSH dollari/1 sotix

max 15 000 AQSH dollari/1 sotix

1.1. Yerdan foydalanish holati va uning ixtisoslashuvi tahlili

Yerning balandligi - 350 - 800 m

Hududda shifobaxsh mineral suv mavjud

viloyatda 16 daryo va soy, ko’plab mavsumiy soylar mavjud

iyunda +35-+45°

Yanvarda temperatura −25° gacha pasayadi

Vegetatsiya davri 229 kun

Sug’oriladigan yer maydoni - 20 811 Ga

Bo'z erlar - 285 Ga

Shaxsiy tomorqa xo'jalik yerlari - 5295 Ga

Pichanzor va yaylovlar - 6608 ga

Bog'dorchilik va sabzovotchilik erlari - 5010 Ga

Tumandagi jami daryo, soy, kanal uzunligi - 170 Km

Shahar
8 ta

Shaharcha
10 ta


MFY
57 ta

QFY
19 ta

Hududda mavjud bo`lgan jamoat joylari

Chortoq temiryo'l bekatidan master reja hududigacha masofa 14 km.

Namangan shahridan master reja hududigacha masofa 30 km.



- Aholi turar-joy uylari
- Jome' masjidlar
- Baliqchilik hududi
- Chortoq suv ombori
- Sanoat zonasi
- Bolalar bog'chasi
- Maktab
- Tez tibbiy yordam
- Yoqilg'i to'ldirish shahobchasi


“Qorabog” MFY yashil hududlar va suv ombori

Chortoq suv ombori Namangan viloyatida, Chortoqsoy daryosi o‘zanida joylashgan bo‘lib, 1975-yilda qurib bitkazilgan. Ushbu suv ombori daryo suvini mavsumiy tartibga solish va Chortoq hamda Uchqo‘rg‘on tumanlaridagi ekin maydonlarini suv bilan ta’minlash maqsadida barpo etilgan.

Asosiy texnik ko’rsatkichlar:
To’liq hajmi: 30,0 mln m3
To’g’on balandligi: 37 m.
Maksimum suv o’tkazish imkoniyati: 50 kub m/sek.

Suv ombori o‘zanli turga kirib, loyiha bo‘yicha 5100 gektar yer maydonini sug‘orishga mo‘ljallangan. Oqimni rostlash turi mavsumiy bo‘lib, suv ombori II-sinfga kiradi va seysmik balli 9 ballni tashkil etadi.

Chortoq suv omborining barpo etilishi natijasida Namangan viloyatidagi Chortoq va Uchqo‘rg‘on tumanlaridagi ekinzorlarning suv ta’minoti yaxshilandi. Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.




Tuman jamoat joylari transport, tabiiy gaz va elektr ta’minoti holati

Transport yo‘llar va avtoturargohlar

Avtoturargohlar umumiy soni 3 000 dan ortiq

Avtoturargohlarda polimer bitum asosidagi asfalt qoplamalaridan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lib, bunda texnik xizmat ko‘rsatish muddati oddiy asfaltdan 3–4 baravar uzoq va yuklamalarga chidamliligi yuqori. Avtoturargoh ustki bostirma qismlariga quyosh panellari o‘rnatilgan bo‘lib, bu hududning energiya sarfining 40%–60% ni ishlab chiqish quvvati tashkil etadi.



Chortoq shahri

Elektr ta’minoti: 100%

Yo‘l infratuzilmasi: 100%

Tabiiy gaz ta’minoti: 67%

Suv ta’minoti:60%

Chortoq shahridagi madaniy-ijtimoiy obyektlar

“Qorabog” MFY hududining transport yo`li tuzilmasi

– Master reja hududi (60 ga)


– II darajali ko’cha yo’li

– III darajali ko’cha yo’li

– Yangiqo’rg’on va Chortoq tumani chegarasi

III – darajali ko’cha yo’li





Chortoq tumani joriy iqtisodiy tarmoqlari bo'yicha holat

Chortoq tumani umumiy yer maydoni va aholi soni



3600 km²

214,900 kishi

Xonadonlar soni 36914

oilalar soni 38752

Yaqin kelajakda aholiga kerak bo'ladigan uy-joy fondi 24927


Chortoq tumanida aholi bandligi sohalar kesimida tahlil qilinganda, qishloq xo'jaligi asosiy ish beruvchi tarmoq ekanligi namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik sohalari ham yuqori ahamiyatga ega. Namangan viloyati bo'yicha 350 536 kishi band bo'lsa, Chortoq tumanida bu ko'rsatkich 24 927 kishini tashkil etadi. Tuman viloyat umumiy bandlik darajasida 7% ulushga ega.

Chortoq tumanida mehnat resurslari umumiy holati:

Iqtisodiy faol aholi: 86 250 nafar

Mehnatga layoqatli Ishsizlar soni: 6 134 nafar

Ishsizlik darajasi: 7,1 %



Chortoq investitsiyalar tahlili

№	Yil	Namangan	Chortoq	Chortoq ulushi (%)
1	2016	2824.5	95.3	3.37
2	2017	3586.7	124.3	5.47
3	2018	8158.1	177.0	2.17
4	2019	12084.9	250.8	2.08
5	2020	12007.2	388.3	3.23
6	2021	12982.0	608.9	4.69
7	2022	14775.1	626.0	4.24
8	2023	19220.1	1357.6	7.06
9	2024	53340.5	1983.3	3.72

“Qorabog`” MFY iqtisodiy tarmoqlari bo’yicha holati

Qorabog’ MFY umumiy yer maydoni va aholi soni



3.5 km^2

6450 kishi

Xonadonlar soni – 545 ta

Oila soni – 740 ta

Ko’chalar soni – 14 ta

Migrantlar soni – 82 ta

Qorabog’ hududida tadbirkorlik sub'ektlari soni

Yuridik korxonalar	6
Kichik biznes sub'ektlari (ishlab chiqarish)	2
Yakka tartibdagi tadbirkorlar	19
Oilaviy tadbirkorlik	14

Ishsizlar soni – 87 nafar, shundan

Ayollar – 65 nafar

Yoshlar – 10 nafar

Erkaklar – 12 nafar

Mahalla infratuzilmasi va kommunikatsiya holati	
Ichki yo‘llar	14.5 km
Transformatorlar	6 ta
Ichimlik suvi	100%
Tabiiy gaz	–
Suyultirilgan gaz	100%


Mahallaning asosiy drayverlari

- Chorvachilik
- Dehqonchilik

MFY hududida mavjud ijtimoiy soha obyektlari	
Kutubxona	1
Savdo do‘konlari	9
To‘yxonalar	1
Umumiy ovqatlanish shahobchalari	2
Oilaviy poliklinika	1
Sport maydonchalari	1
Masjidlar	1


Aholi o`rtasida o`tkazilgan so`rovnomalar natijalari

Yashash joyingiz




- Namangan
- Toshkent shahar
- Toshkent viloyati

Jinsingiz




- Erkak
- Ayol

Yoshingiz




- 18-25
- 26-35
- 36-45
- 46-55
- 55 dan yuqori

Ish faoliyatingiz qaysi sohada




- Davlat tashkiloti
- Xususiy korxona ishchisi
- O'z o'zini band qilgan
- Ishsiz




Sizda mavjud daromad manbalarini belgilang

- Tadbirkorlik
- Chorvachilik
- Dehqonchilik
- Kunlik ish orqali
- Hususiy ish orqali
- Ish haqi
- Boshqa




Dam olish vaqtingizni aksariyat qanday sarflaysiz?

- Oila davrasida
- Yashash hududida
- Shahar markazlarida
- Boshqa viloyatda
- Chet elda




Oylik daromadizngiz qancha?

- 500 ming-1 mln so'mgacha
- 1-3 mln so'm
- 3-5 mln so'm
- 5-8 mnl so'm
- 8 mln dan yuqori



Dam olish va turistik sayohatga qancha vaqt sarflaysiz?

- Vaqtim yo'q
- Har hafta
- oyiga 1 marta
- Yiliga 2 martta
- Yuiliga 2 martadan ko'p




Daromadingizni asosiy qismini qanday sarflaysiz?



Siz yashab turgan hududda majmua tashkil etilishi zarur deb hisoblaysizmi?


Namangan viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlar va loyihalar



Namangan viloyatining turli hududlarida turizmning ayrim yo’nalishlarini rivojlantirish uchun zaruriy imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda.

Dam olish turizmi	Yangiqo‘rg‘on va Pop – dam olish turizmi, tog‘ kurortlari bazasida.
Ziyorat turizmi	Chortoq – tibbiy va ziyorat turizmi;
Tibbiyot turizmi	Namangan shahri – tibbiy xizmatlar ko‘rsatish orqali tibbiyot turizmi;
Ekoturizm	Mingbuloq – baliqchilik klasterlari bazasida ekoturizm;
Vino turizmi	Kosonsoy – uzumchilikni rivojlantirish asosida vinoturizm
Hunarmandchilik turizmi	Chust – hunarmandchilik va turizm;


Namangan aholisi va tashrif buyuruvchilarning master rejadan nima kutishadi



Tumanning turizm jozibadorligi

















1. Mulla-Qirg'iz Madrasasi. 1910-1912 yillarda noto'g'ri beshburchak shaklida qurilgan. Shahar madaniy merosi reyestriga kiradi.

2. Afsona madaniyat va dam olish bog'i. Dam olish kunida yurish uchun javob beradi. Attraksionlar, akvapark va musiqiy favorlar mavjud.

3. Namangani Maqbarasi. Shoir va olim Mavlavi Namangani xotirasiga qurilgan.

4. Mavlon-Buva Majmuasi. Ichki bezaklari bilan ajralib turadi.

5. Xoja Amin Kabri Maqbarasi. XVIII asrning ikkinchi yarmida qurilgan tarixiy ahamiyatga ega diqqatga sazovor joy.

6. Namangan viloyati tarix va madaniyat muzeji. Bu erda ko'plab arxeologik to'plamlar mavjud.

7. Qadimgi Axsikent shahrining vayronalari. Sirdaryo daryosi sohilidagi ko'katlar orasida joylashgan.

8. Chadak qishlog'ida yig'layotgan tosh. Suv tosh bo'ylab oqadigan er osti oqimidan paydo bo'ladi.

SWOT tahlili

Chortoq tumani SWOT tahlili

Kuchli tomonlari (Strengths)

Qishloq xo‘jaligi sektori rivojlangan – Tuman hududida qishloq xo‘jaligi keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab aholi dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadi.

Sanatoriy va dam olish maskanlari mavjud – Chortoq shifobaxsh suvlari bilan mashhur bo‘lgani sababli, sanatoriyalar va sog‘lomlashtirish markazlarida ish o‘rinlari ko‘p.

Turizm sektori rivojlanmoqda – Tabiiy resurslar va mo‘tadil iqlim tufayli ekoturizm, mehmonxona biznesi va restoranlar rivojlanib, aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratilishi mumkin.

Madaniy va hunarmandchilik an’analari saqlanib qolgan – Chortoqda xalq hunarmandchiligi rivojlangan bo‘lib, qo‘l mehnati orqali aholi daromad olish imkoniga ega.

Zaif tomonlari (WEAKNESS)

Ish o‘rinlarining cheklanganligi – Chortoqda sanoat va yirik korxonalar kamligi sababli doimiy ish joylari cheklangan.

Yoshlar uchun yuqori malakali ish joylari yetishmovchiligi – Oliy ma’lumotli yoshlar ko‘pincha tuman hududida o‘z sohasi bo‘yicha ish topolmaydi va yirik shaharlarga ko‘chib ketishga majbur bo‘ladi.

Mavsumiy ishchi kuchi ustunligi – Qishloq xo‘jaligi va turizm asosiy iqtisodiy sektorlar bo‘lgani uchun yilning muayyan fasllarida ish o‘rinlari ko‘payib, boshqa vaqtlarda kamayishi kuzatiladi.

Sanoat sektori past rivojlangan – Chortoqda yirik sanoat korxonalari yo‘qligi tufayli ishchilar asosan xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi sohalariga bog‘liq.

Imkoniyatlari (Opportunites)

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish – Yangi texnologiyalar va innovatsion usullar joriy etilishi orqali ishchi o‘rinlari oshirilishi mumkin.

Turizm va mehmonxona biznesini kengaytirish – Turistik yo‘nalishlar rivojlanishi orqali mehmonxonalar, restoranlar va gidlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratilishi mumkin.

Sanoat va kichik biznesni rivojlantirish – Hunarmandchilikni yo‘lga qo‘yish, kichik ishlab chiqarish sexlarini tashkil etish orqali aholi bandligini oshirish mumkin.

Kasbiy ta’lim va qayta tayyorlash kurslari – Aholini yangi kasblarga o‘qitish va qayta tayyorlash orqali yangi ish imkoniyatlari yaratish.

Infratuzilma va transport rivojlanishi – Temir yo‘l va avtomobil yo‘llari rivojlanishi ish o‘rinlari yaratilishiga va aholining uzoq hududlarda ham ish topishiga yordam beradi.

Tahdidlar (Threats)

Yoshlarning migratsiyasi – Ish imkoniyatlari cheklanganligi tufayli ko‘plab yoshlar Toshkent, Namangan yoki xorijiy davlatlarga ishlash uchun ketishga majbur bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy inqirozlar ta’siri – Agrobiznes va turizm iqtisodiy o‘zgarishlarga sezgir bo‘lgani sababli, iqtisodiy inqirozlar ish o‘rinlari soniga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishi va suv resurslari muammolari – Agar suv resurslari kamayib yoki iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligiga ta’sir etsa, ko‘plab dehqonlar ishsiz qolishi mumkin.

Korrupsiya va byurokratik to‘siqlar – Biznes yuritish va yangi ish o‘rinlarini yaratish jarayonida byurokratik muammolar paydo bo‘lishi ishsizlikka ta’sir qilishi mumkin.

SWOT tahlili

Chortoq tuman turizm imkoniyatlari bo'yicha SWOT tahlili

Zaif tomonlari (WEAKNESS)

- Infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi - ayrim hudud-larda transport va muhandislik infratuzilmasi talabga javob bermaydi
- Mutasaddilar va xususiy sektorlar o'rtasida hamkorlik yetishmovchiligi - biznes muhitni yanada yaxshilash talab etiladi
- Raqobatdoshlik darajasi past - hududdagi biznes subyekt-larining inovatsion yechimlardan foydalanish darajasi past
- ish o'rinlarining cheklanganligi - yoshlar uchun ish joylari va startaplarni qo'llab quvvatlash mexanizmlari kam rivojlangan
- Mahalliy brendning yetarlicha shakllanmaganligi - chortoq hali turistik brend sifatida keng targ'ib qilinmagan, bu esa xorij sayyohlarni jalb qilishda qiyinchlik tug'diradi
- Sarmoyalarni jalb qilish muammolari - tadbirkorlar asosan davlat yordamiga umid qilmoqda, xususiy sektor tarmoqlari kam

Imkoniyatlari (Opportunites)

- Turizmni rivojlantirish - ekologik va tibbiy turizmni rivojlantirish orqali hududga sarmoya jalb qilish mumkin
- Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish - zamonaviy agrotexno-logiyalar joriy etish orqali eksport salohiyatini oshirish
- Xorijiy investitsiyalar - to'gridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali shaharsozlik va infratuzilmani rivojlantirish
- Biznes muhitni yaxshilash - yangi startaplar va kichik biznesni qo'llash
- Transport va logistika - yangi yo'llar qurish va logistika markazlarini tashkil etish
- Hukumat tomonidan qo'llab quvvatlanish - turizm va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat subsidiyalarini va imtiyozlarini jalb qilish imkoniyati bor

Kuchli tomonlari (Strengths)

- tabiiy resurslar - Chortoq o'zining shifobaxsh mineral suvlari va sanatoriylari bilan mashhur
- Turistik jozibadorlik - Ekologik turizm va shifobaxsh dam olish maskanlari
- Qishloq xo'jaligi - mevali bog'lar uzumzorlar va dehqonchlikka mos iqlim
- Mavjud infrotuzilma - yo'llar va aloqa tizimi yaxshi rivojlangan
- Madaniy va tarixiy meros - mahalliy an'analar va hunarmandchilikni rivojlantirish imkoniyati
- Mahalliy bozorda talabning yuqori-ligi - hududda xizmatlar va savdo sohalari ustuvor bo'lib, ularni turizm bilan bo'lab rivojlantirish mumkin


Tahdidlar (Threats)

- Ekologik muammolar - atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik balansni saqlash
- Migratsiya jarayonlari - yoshlar va malakali kadrlarning boshqa hududlarga ko'chishi
- Iqtisodiy betakrorlik - makroiqtisodiy faktorlar va tashqi bozordagi o'zgarish ta'siri
- Iqlim o'zgarishi - qishloq xo'jaligi va turizm sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin
- Moliyaviy resurslarning cheklanganligi - turizm infra-tuzilmasni yaxshilash uchun katta sarmoya talab qilinadi, bu esa mablag' yetishmovchiligi bilan bo'gliq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin

CHORTOQ
WELNESS CITY

II Bob. Master-reja hududining iqtisodiy-ijtimoiy holati

Viloyatning turistik potensiali



Qulay transport imkoniyati sayyohlik yo'nalishini tanlashda asosiy omillardan biri va sayyohlarga yo'naltirilgan har qanday shahar muvaffaqiyatining kalitidir.


Sayohat davomiyligi

1 kishiga sayohat narxi (1 mashina) ekonom/kupe/ benzin mavsumda [mln so'm]



O'zbekiston Respublikasi hududlaridan kelish						
No	qayerdan - qayerga	Avtomobilda	Poezdda	Samolyotda	Narxi	Masofasi
1	Toshkent - Namangan	5 soat 14min	5 soat 03min	1 soat 00min	134 100 / 408 682	284 km
2	Andijon - Namangan	1 soat 22min	2 soat 05min	—	108 640	70 km
3	Farg'ona - Namangan	1 soat 32min	—	0 soat 50min	534 208	81 km
4	Guliston - Namangan	6 soat 14min	7 soat 24min	—	148 090	340 km
5	Jizzax- Namangan	7 soat 41min	8 soat 39min	—	169 090	430 km
6	Samarqand - Namangan	9 soat 03min	10 soat 20min	0 soat 50min	183 100 / 663 041	540 km
7	Qashqadaryo - Namangan	11 soat 21min	—	—		690 km
8	Surxondaryo - Namangan	15 soat 19min	—	1 soat 10min	789 178	920 km
9	Navoiy - Namangan	11 soat 35min	12 soat 37min	—	200 920	690 km
10	Buxoro- Namangan	13 soat 10min	13 soat 43min	—	214 700	810 km
11	Xorazm - Namangan	18 soat 46min	—	—	—	1180 km
12	Qoraqalpog'iston - Namangan	20 soat 56min	22 soat 30min	1 soat 20min	299 030 / 675 680	1310 km

Master-reja hududining dislokatasiyasi





Master reja hududi **60 Ga**

Chortoq qirg'oq bo'yi hududining mavjud holati geolokatsiyasi
















Joylashuv o`rni va oraliq masofalar







Namangan shahar — 28 km — Qorabog' MFY

Namangan shahar — 30 km — Master-reja hududi

Qorabog' MFY — 2.3 km — Master-reja hududi

2.1

Namangan viloyati tumanlarining «o'sish nuqtalari" va "drayver sohalari»

Namangan shahri

Kichik sanoat zonalari, to‘qimachilik sanoati va tibbiy xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish

Norin tumani

Baliqchilik va quyonchilik klasterini tashkil etish, ekoturizm, to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish

Chortoq tumani

Meva-sabzavotchilik, uzumchilik, tibbiy va ziyorat turizmni rivojlantirish, chorvachilik klasterlari tashkil etish

Pop tumani

Meva-sabzavotchilik, qurilish materiallari sanoati va turizm sohalarini rivojlantirish



Uychi tumani

Charm poyabzal,to‘qimachi-lik sanoati, parrandachilik sohalarini rivojlantirish

Uchqo’rgon

Meva-sabzavotchilik, qurilish materiallari sanoati va turizm sohalarini rivojlantirish

Kosonsoy tumani

Meva-sabzavotchilik, uzumchilik sohalari, qurilish materiallari, farmasevtika sanoatini rivojlantirish

To‘raqo‘rg‘on tumani

To’qimachilik, qurilish materiallari sanoati, hunarmandchilik, turizm sohalarini rivojlantirish


Namangan tumani

Issiqxona kooperasiyalarini tashkil etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash sohalarini rivojlantirish, kichik sanoat zonalari tashkil etish


Mingbuloq tumani

Meva-sabzavotchilik, baliqchilik sohalarini rivojlantirish, paxta-to’qimachilik klasterlarini tashkil etish

Hududning joriy iqtisodiy profili



Aholining yosh guruhlari bo‘yicha foiz taqsimoti




2025-yil holatiga ko’ra viloyatga ko`chib kelganlar soni

45 ta

2025-yil holatiga ko’ra viloyatdan ko`chib ketganlar soni

306 ta



Namangan viloyatida bandlik tarkibi (kishi)

- 01 Dehqon xo'jaligi; 65000; 35%
- 02 Yakka tartibdagi tadbirkorlar; 62000; 34%
- 03 Tadbirkorlik subyektlari; 48000; 26%
- 04 O'zini o'zi band qilish; 9900; 5%


Malakasi darajasini ko’rsatgan holda ishchi kuchi tahlili






Ish haqi diapazoni: Viloyatda o'rtacha oylik ish haqi 2023 yil holatiga 3,2 million so'mdan (minimal) 10,4 million so'mgacha (maksimal) bo'lgan. Bu esa eng yuqori ish haqi eng past ish haqidan 3,2 baravar yuqori ekanligini ko'rsatadi, ya'ni viloyatda ish haqlari darajasi o'rtasida sezilarli farq mavjud.
Aholi sonining o'zgarishi: Viloyatda iqtisodiy faol aholi soni 2020-2023 yillar davomida nisbatan barqaror bo'lib qolgan, lekin ozgina tebranishlar kuzatilgan:
Umuman olganda, 4 yil ichida aholi soni 3,2 ming kishiga (yoki ~0,26%) o'sgan, bu juda oz miqdordagi o'sish hisoblanadi.


Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi




Iqtisodiyotda bandlar



Ishsizlar



Ishsizlik darajasi, foizda



Hududning rivojlanish potensiali

Strategik muhim

Bugungi kunda Namangan O’zbekistonning sharqiy iqtisodiy va madaniy markazi sifatida aloqalarni kuchaytirdi. qo'shni viloyatlar va aholi punktlari bilan chegaradosh bo'lgan yirik aglomeratsiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi hudud bugungi kunda uning aholisi 3189500 kishini tashkil etadi.

Iqtisodiy barqaror

Iqtisodiyotning an'anaviy (Agro-prom) va istiqbolli (turizm, innovatsiya) tarmoqlarini rivojlantirish,tashkil etilishi rejalashtirilayotgan madaniy markazni, innovatsion markazni,investitsion infratuzilmalar Namanganning mehnat bozorini sezilarli darajada oshiradi va vodiy aglomeratsiyada mehnat, madaniy va infratuzilma aloqalarini mustahkamlaydi.

Turizm

Turizmning yangi turlari va sayyohlik oqimining o'sishi turizm sohasidagi mutaxassislarga talabni oshiradi, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni rag'batlantiradi, Namangan va aglomeratsiyaning butun iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

yangi ish o’rinlari

Yangi tarmoqlarda bo'sh ish o'rinlarining ochilishi Namangan viloyatida istiqomat qiluvchi hamda qo‘shni viloyatlardan mutaxassislarni jalb qiladi, bu esa viloyat va tumanda o'zlarining yuqori malakali kadrlarini yetishtirishni rag'batlantiradi.

Hududning yangi imkoniyatlari

Turizm sektori, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi kesishmasida turizmning yangi tarmoqlari va turlari paydo bo'ladi: gastronomiya ko'ngil ochar, xalqaro festivallar turizmi, madaniy kognetiv turizmni shakllantiradi.

Yaponiyaning Turistik Jozibasi: An'ana va Zamonaviylik Uyg'unligi

Yaponiya o'ziga xos madaniyati, tabiiy go'zalligi va ilg'or texnologiyalari bilan dunyo sayyohlarini o'ziga jalb qiladi.

Asosiy jozibadorlik sabablari:

Qadimiy an'analar: Samuraylar va geyşalar tarixi, an'anaviy choy marosimlari, ibodatxonalar.

Tabiat mo''jizalari: Bahorda gul ochadigan sakura daraxtlari, qishda Niseko tog'larida chang'i sporti.

Zamonaviy qulayliklar: Tez poyezdlar, aqlli shaharlar, mehmonparvarlik.

Noyob tajriba: Robot restoranlari, an'anaviy ryokan mehmonxonalari, ramen oshxonasi.

Yaponiya - o'tmish va kelajakning mukammal uyg'unligi.









Chet el tajribasi

Malayziya: Tropik Jo'ziba va Madaniy Rang-baranglik

Janubi-Sharqiy Osiyoning bu davlati tropik go'zallik, noyob madaniyat va zamonaviy qulayliklarni taklif etadi.

Sayyohlarni jalb qilish omillari:

Tabiat boyligi: Taman Negara tropik o'rmonlari, Langkavi orollari, noyob hayvonot dunyosi.

Madaniy xilma-xillik: Malay, xitoy va hind an'analarining uyg'un aralashmasi.

Zamonaviy ob'ektlar: Petronas egizak minoralari, ilg'or savdo markazlari.

Qulab turish narxlar: Arzon mehmonxonalar, oziq-ovqat va transport xarajatlari.

Malayziya - arzon va sifatli dam olishni istaganlar uchun ideal joy.









Chet el tajribasi

Italiya: San'at, Tarix va Oshxonaning Vatani

Italiya - dunyoning eng mashhur turistik yo'nalishlaridan biri bo'lib, noyob madaniy meros va tabiiy go'zallikni taklif etadi.

Jozibadorlik sabablari:

Madaniy meros: Rim Kolizeyi, Pisa minorasi, Vatikandagi muzeylar.

Oshxona san'ati: Haqiqiy pitsa, pasta, tiramisu va mahalliy sharoblar.

Tabiat manzaralari: Amalfi qirg'og'i, Toskananing yam-yashil tepaliklari, Alp tog'lari.

Moda va dizayn: Milan - dunyo moda poytaxti, dizayerlar butiklari.

Italiya - san'at, tarix va oshxona sevuvchilari uchun tugsiz boylik manbai.









Chortoq qirg'oq bo'yi hududining mavjud holati geolokatsiyasi


Chortoq suv ombori - Namangan viloyatida Chortoqsoy daryosi o'zanida qurilgan suv ombori. Daryo suvini muntazam tartibga soladi. Inshoot 1975-yilda qurib tamomlangan. To'ldirish hajmi 30,0 ming m³, to'g'on balandligi 37 m, maksimal suv o'tkazish imkoniyati 50 m³/sek. Namangan viloyatidagi Chortoq, Uchqo'rg'on tumanlaridagi ekinzorlarning suv ta'minotini yaxshilash imkoniyatini beradi.


– Suv ombori

– Master reja hududi









Chortoq tumani havo indeksi

Chortoq tumani havo darajasi bo’yicha ko’rsatkich

65	56	45	57	56

55

O'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra, Chortoq tumanining 5 kunli o'rtacha havoning PM2.5 darajasi bo'yicha ko'rsatkichi

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,PM2.5 12 mkg/m3 yoki undan past darajalar sog'lom hisoblanadi va ta'sir qilish xavfideyarli yo'q. Agar miqdor 24 soat ichida35 mkg/m3 ga yetsa yoki undan oshsa,havo xavfli deb tasniflanadi va astma kabi nafas olish muammolari bo'lgan odamlaruchun muammo tug'dirishi mumkin. 50 mkg/m3dan yuqori darajalarga uzoq vaqt ta'sir qilish jiddiy sog'liq muammolariga va erta o'limga olib kelishi mumkin.

0-30	31-60	61-90	91-120	121-250	250+
Yaxshi	O'rta	Yuqori	Nosog'lom	Og'ir	Xavfli

Havo indeksining o'zgarishi inson sog'lig'iga qanday ta'sir ko'rsatadi?




1. Nafas yo'llarining siqilishi



2. O'pka funktsiyasining pasayishi



3. Hujayra shikastlanishi



4. Ko'krak qafasidagi siqilish



5. Yo'tal



6. Terining tirnash xususiyati




III-IV Bob. Hududni rivojlantirish maqsadlari, taklif etilayotgan investitsiya va infratuzilma loyihalari



Jamoatchilik muhokamasi

Chortoq qirg'oq bo'yi hududida rekreatsion hudud tashkil etish loyihasini infratuzilma bilan ta'minlash uchun davlat byudjetidan
____mldr. so'm ajratish talab etiladi.

Chortoq qirg'oq bo'yi hududida 60 gektar yer maydonida tashkil "etilgan rekreatsion hudud" infratuzilma tarmoqlarini tartibga
keltirish va tekislash orqali 60 gektar yer maydoni bo'sh turganligi sababli samarali foydalanish va shahar markaziga olib boruvchi
kirish yo'li hamda ichki yo'llarni asfaltlash uchun mablag' ajratish.





Yashil iqtisodiyotni qo`llab quvatlash tadbirlari



QUYOSH PANELLARI

Hududdagi binolarning tom qismi quyosh panellari bilan jihozlanishi loyihalashtirilgan bo‘lib, bundan maqsad: quyosh nuridan foydalanib arzon, toza va barqaror elektr energiyasi ishlab chiqarishdir. Binolarning energiya tejamkor va ekologik xavfsiz bo’lishi yashil iqtisodiyotga o‘z hissasini qo’shadi. Quyosh paneli elektr sarfining 30%ini qoplay oladi.



AQLLI YORITGICHLAR

Sensorli(fotodatchik) ko’cha chiroqlari - Tungi payti avtomatik yonadi va kunduz kuni o’chadi. Faqat odam yoki transport vositasi yaqinlashganda yonadi. Harakat to’xtaganda yoki uzoqlashganda o’z-o’zidan o’chadi yoki xira holatga o’tadi. Yana afzal tomonlari: quyoshdan quvvat olgan holda ishlaydi va atrof - muhitga zararsiz.



CHIQINDI SUVLARNI QAYTA ISHLASH

Chiqindi (yoki oqova) suvlarini qayta ishlash — bu ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim jarayon hisoblanadi. Qayta ishlashning quyidagi foydali jihatlari mavjud:
- Atrof muhitni muhofaza qilish
- Suv resurslarini tejash
- Energiya va resurslarni qayta ishlash




ELEKTROMOBIL QUVVATLASH STANSIYALARI

Hududda mavjud bo‘lgan avtoturargohlar elektromobillar uchun quvvat to‘ldirish stansiyalari ham o’z ichiga oladi. Bu esa yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos keladi. Shu bilan birga, qo’shimcha daromad manbai hamdir.

Chiqindilarni yig‘ish, atrof - muhitni muhofaza qilish nuqtalari

Chiqindi yig‘ish nuqtalarining joylashuvi

Chiqindi yig’ish nuqtalalari hudud bo‘ylab asosiy piyoda yo‘laklari va avtomobil yo‘llari bo‘yicha bir maromda taqsimlangan.



Chiqindi yig‘ish nuqtalari quyidagi shaharsozlik va ekologik tamoyillar asosida joylashtirilgan:

Qulaylik – foydalanuvchi chiqindini uzoq masofaga olib yurishga majbur bo‘lmaydi.

Sanitariya xavfsizligi – turar joy, dam olish va jamoat hududlaridan optimal masofada.

Transportga yaqinlik – maxsus chiqindi tashuvchi texnikalar bemalol kirib-chiqa oladigan joylarda.

Ekologik muhofaza – suv ombori va yashil hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar yetkazmaydigan joylashuv.

Chiqindi yig‘ish nuqtalarining funksional qulayliklari. Hududda tashkil etilgan chiqindi yig‘ish nuqtalari quyidagi qulayliklarga ega: Markazlashtirilgan yig‘ish tizimi. Chiqindilar belgilangan nuqtalarda to‘planadi, bu esa hudud bo‘ylab tartibsiz tashlab ketish holatlarini kamaytiradi. Transport xizmatiga moslashgan. Asosiy yo‘l bo‘ylab joylashgani sababli chiqindilarni muntazam va tez olib chiqish imkoniyati mavjud. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Chiqindilarning suv omboriga tushib ketishi yoki shamol orqali tarqalishi oldi olinadi. Estetik jihatdan moslashtirilgan Chiqindi qutilari landshaft dizayniga mos holda joylashtirilgan, yashil hudud ko‘rinishini buzmaydi. Gigiyena va sanitariya holatini yaxshilash Hududda hidlanish, hasharotlar va chiqindi to‘planishining oldi olinadi.

CHORTOQ WELNESS CITY

Qurilish smeta hujjatlari

4.2
4.3

Lot raqamlari	Umumiy yer maydoni	Qurilish osti maydoni	Yashil maydonlar, Ga	Tashrif buyuruvchilar soni, 1 oyda	O‘rtacha narx	Jami o’rtacha yillik tushum	Qurilish xarajati	Yashil hudud xarajatlari	Ichki yo‘laklar xarajati	Umumiy loyiha qiymati	Davlat byudjetiga kutilayotgan soliq tushumi	Qoplash muddati, yilda	Ishchi kuchi
Lot 1	3.41	0.92	2.92	2275	220 000	24 187 000 000	19 760 000 000	17 746 000 000	4 160 000 000	41 665 000 000	1 209 000 000	7.9	94
Lot 2	2.47	0.32	1.15	1200	180 000	20 700 000 000	47 840 000 000	7 410 000 000	3 380 000 000	58 630 000 000	825 000 000	8	176
Lot 3	3.63	0.45	1.65	1185	150 000	14 265 000 000	32 630 000 000	10 855 000 000	4 290 000 000	46 995 000 000	713 000 000	7.3	111
Lot 4	3.68	0.35	1.43	650	420 000	23 000 000 000	37 310 000 000	11 375 000 000	2 340 000 000	56 875 000 000	1 147 500 000	6.5	96
Lot 5	4.98	2.93	1.79	1300	235 000	26 100 000 000	54 470 000 000	22 815 000 000	6 110 000 000	83 395 000 000	1 368 000 000	6.6	226
Lot 6	2.53	0.45	1.20	550	600 000	27 000 000 000	29 640 000 000	11 895 000 000	2 990 000 000	44 525 000 000	2 700 000 000	7.0	131
Lot 7	6.28	0.80	4.06	15 950	600 000	41 744 000 000	113 425 000 000	21 710 000 000	8 320 000 000	143 456 000 000	2 087 000 000	6.5	444
Lot 8	5.13	0.94	3.33	58 200	100 000	62 730 000 000	57 980 000 000	22 165 000 000	10 790 000 000	95 615 000 000	460 000 000	10	183
Lot 9	1.31	0.16	0.92	720	300 000	4 320 000 000	1 300 000 000	5 980 000 000	2 990 000 000	20 215 000 000	61 000 000	6.5	20
Lot 10	3.72	0.04	0.38	19 650	120 000	18 915 000 000	20 540 000 000	7 280 000 000	1 040 000 000	26 170 000 000	946 000 000	5.0	190
Jami:	**60**	**7.36**	**18.83**	**116 000**	**300 000**	**270 246 000 000**	**409 530 000 000**	**133 135 000 000**	**46 360 000 000**	**617 500 000 000**	**6 982 000 000**	**7.1**	**1678**

Davlat byudjeti tomonidan qoplanadigan xarajatlar ro’yxati:

	Jami uzunligi	Qiymati (so‘m)
Elektr tarmog‘i va TP lar	21.4 km	13 250 000 000
Ichimlik suvi tortish va saqlash inshoati	5.95 km	3 200 000 000
Chiqindi suvlarni yig‘ish tarmog‘i va qayta ishlash	5.96 km	9 800 000 000
Jami:		26 250 000 000

Oqava suvlarni qayta ishlash stansiyasi «ЛОС-500» jami 2 ta - 9,8 mlrd. so’m

Jalb qilinadigan mablag‘larning umumiy qiymati: 26 250 000 000 so‘m

Umumiy loyiha qiymati: 643 750 000 000 so’m

Davlat investitsiyasi umumiy mablag‘ning **4.1%** ini tashkil qiladi.

Xususiy sektor investitsiyalari umumiy mablag‘ning **95.9%** ini tashkil qiladi

Qurilish smeta hujjatlari

1. Yaqin muddatli qoplash “eng tez qaytuvchi”

Bu lotlar investitsiya risklari nisbatan past va tezroq daromad beruvchi hisoblanadi.

Lot 4 – 6,5 yil

Lot 7 – 6,5 yil

Lot 9 – 6,5 yil

Lot 10 – 5,0 yil

2. O‘rta muddatli qoplash

Barqaror, lekin o‘rtacha muddatda daromad beruvchi loyihalar.

Lot 1 – 7,9 yil

Lot 3 – 7,3 yil

Lot 5 – 6,6 yil

Lot 6 – 7,0 yil

3. Uzoq muddatli qoplash:

Yirik hajmli, yuqori tashrif va katta infratuzilma talab qiluvchi, strategik lotlar.

Lot 2 – 8,0 yil

Lot 8 – 10,0 yil

Oqava suvlarni qayta ishlash stansiyasi «ЛОС-500» jami 2 ta - 9,8 mlrd. so’m

Jalb qilinadigan mablag‘larning umumiy qiymati: 26 250 000 000 so‘m

Umumiy loyiha qiymati: 643 750 000 000 so’m

Davlat investitsiyasi umumiy mablag‘ning **4.1%** ini tashkil qiladi.

Xususiy sektor investitsiyalari umumiy mablag‘ning **95.9%** ini tashkil qiladi

Mehmonxona binolari

Master reja hududida 6 ta mehmonxona joylashtirilgan bo‘lib, umumiy ____ ta xona mehmonlarga xizmat ko‘rsatadi. Shuningdek, mehmonxona hududlarida restoran, konferensiya-zali, fitness va SPA markazi tashkil etiladi. Bu imkoniyatlar natijasida mehmonxonalar oyiga o‘rtacha 1800 tashrif buyuruvchini qabul qilishi mumkin.

Turistik dam olish maskanida mehmonxona qurishning asosiy afzalliklari:

- ☑ Doimiy daromad manbai
- ☑ Hududning iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shadi
- ☑ Turistlar oqimini oshirish
- ☑ Ko‘p turdagi mehmonxonalar qurish imkoniyati
- ☑ Uzoq muddatli investitsiya va kapital qiymatining oshishi

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari

Mehmonxona lot raqamlari: **30, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 43**

Umumiy maydoni: **7.5 ga**

Umumiy qurilish maydoni: **1.25 ga**

Umumiy yashil maydonlar: **6.25 ga**

Umumiy qiymati: **129 480 000 000 so‘m**

Moliyalashtirish manbalari:

Davlat investitsiyasi: **0%**

Xususiy investitsiya: **100%**

Yaratiladigan ish o’rni: 401







Akvapark

Turizm zonasiga akvapark qurishning quyidagi foydali tomonlari mavjud:

1.Ko’proq turistlarni jalb qilish - akvapark har qanday yoshdagilar uchun qiziqarli bo’lib, ayniqsa oilaviy dam olishni xush ko’radiganlar uchun jozibador bo’ladi.

2. Daromad manbai - yoz faslida va issiq hududlarda akvapark daromadli biznes bo’ladi, bundan tashqari, restoran, kafe va boshqa xizmatlar orqali qo’shimcha daromad olish mumkin.

3. Turistik infratuzilmani rivojlantirish - Akvapark yaqinidagi mehmonxonalar, do’konlar va boshqa xizmatlar ham rivojlanib, iqtisodiy o’sishga hissa qo’shishi mumkin.

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichkari

Lot raqami: **36**

Lot maydoni: **1.62**

Qurilish maydoni: **0.03 ga**

Loyiha qiymati: **31 525 000 000 so‘m**

Moliyalashtirish manbalari:

Davlat investitsiyasi: **0%**


Xususiy investitsiya: **100%**

Yaratiladigan ish o’rni: 50









Kapsulalar

Tog‘li hududlarda turizm sharoitlarini yaxshilash uchun maxsus kapsula uylar yoki kapsula mehmonxonalar keng qo‘llanilmoqda. Bu kapsulalar ekstremal iqlim sharoitlariga moslashgan, energiya samarador va ekologik jihatdan qulay inshootlardir.

Turistik dam olish maskanida kapsula uylarining asosiy afzalliklari:

- ☑ Tez va oson o‘rnatish
- ☑ Ekologik toza
- ☑ Energiya tejamkor
- ☑ Turistik jozibadorlik

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari

Kapsula lot raqamlari: **62, 63, 64,65**

Umumiy maydoni: **1.31 ga**

Umumiy qurilish maydoni: **0.16 ga**

Umumiy yashil maydonlar: **1.15 ga**

Umumiy qiymati: **10 270 000 000 so‘m**

Moliyalashtirish manbalari:

Davlat investitsiyasi: **0%**

Xususiy investitsiya: **100%**

Yaratiladigan ish o’rni: 23











4.4

Sanatoriya

Turistik zonalarda sanatoriyalarni loyihalash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu nafaqat sayyohlarga sog‘lomlashtirish xizmatlarini taklif etadi, balki hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi. Sanatoriya loyihalashning ahamiyatga ega tomonlari:

- Sog‘lomlashtirish xizmatlarini taqdim etish
- Turistik jozibadorlikni oshirish
- Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish
- Infratuzilmani yaxshislash
- Madaniy ekologik me’rosni saqlash

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari

Kapsula lot raqamlari: **22, 23, 24, 28, 29**
Umumiy maydoni: **4.32 ga**
Umumiy qurilish maydoni: **0.45 ga**
Umumiy yashil maydonlar: **2.19 ga**
Umumiy qiymati: **70 720 000 000 so‘m**
Moliyalashtirish manbalari:
Davlat investitsiyasi: **0%**
Xususiy investitsiya: **100%**
Yaratiladigan ish o’rni: 133

Sog‘lomlashtirish xizmatlarini taqdim etish

- Fizioterapiya: masaj, elektroterapiya, balneoterapiya kabi muolajalar
- Dietoterapiya: Sog‘lom ovqatlanish dasturlari
- Reabilitatsiya: jismoniy mashqlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash

Infratuzilmani yaxshilash

- Yo’l va transport tizimi: Sanatoriyaga olib boruvchi yo’llar va transport xizmatlari yaxshilanadi
